

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

AXMEDOV FARRUX SHAVKATOVICH

**KURASH MUTAXASSISLARI TAYYORLASH TIZIMINI XORIJIY
TAJRIBALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc)

Ahmedov Farrux Shavkatovich

Kurash mutaxassislari tayyorlash tizimini xorijiy tajribalar asosida

takomillashtirish 3

Ахмедов Фаррух Шавкатович

Совершенствование системы подготовки специалистов по курашу на основе

зарубежного опыта 31

Ahmedov Farruh Shavkatovich

Improving the system of training specialists in kurash on the basis of foreign

experience 61

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 65

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

AXMEDOV FARRUX SHAVKATOVICH

**KURASH MUTAXASSISLARI TAYYORLASH TIZIMINI XORIJIY
TAJRIBALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/Ped616 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifaning www.uzdtsu.uz va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchilar:

Shopulatov Abdimalik Nurillayevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Dadabayev Odiljon Jaloliddinovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Raximov Vladimir Shavkatovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ishtayev Javlon Mavlonboyevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor


Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya ximoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.3/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «2» «05» soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy. Tel.:(0-370)-717-17 79,717-27-27, faks.:(0-370) 717-17-76; Veb-sayt: www.uzdjtsu.uz, e-mail: info@uzdjtsu.uz. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti "E" bino, 3-qavat, 309-auditoriya.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot - resurs markazida tanishish mumkin (0151 raqam bilan ro'yxatiga olingan). Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko'chasi, 15-uy. Tel.:(0-370)-717-17 79,717-27-27, faks:(0-370) 717-17-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "15" "04" kuni tarqatilgan.
(2025-yil "18" "03" dagi 16 raqami reyestr bayonomasi)



R.M.Matkarimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d.(DSc), professor

Sh.Sh.Gaziyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d.(DSc), dotsent

M.S.Olimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d.(DSc), professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda kurash bilan shug'ullanish va kurashni o'rganish istagidagi mutaxassislar soni tobora ortib bormoqda. Kurash mutaxassislarini tayyorlash, ularning bilim va malakalarini oshirish borasida amaliy ahamiyatga ega ishlar olib borilayotganligi ma'lum. So'nggi yillarda kurashning Osiyo va Afrika O'yinlari hamda shu kabi boshqa nufuzli xalqaro sport musobaqalari dasturiga kiritilishi kurashning sport turi sifatida geografik jihatdan yanada kengayib borayotganligini ko'rsatadi. Biroq, kurash mutaxassislari tayyorlash amaliyotini xalqaro tajribalar asosida amalga oshirish, kurash mutaxassislari tayyorlash tizimini zamon talablariga muvofiq tarzda amalga oshirish masalasi bugungi kunda o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Dunyo miqyosida kurash mutaxassislari tayyorlashning samarali va natijador tizimini ishlab chiqish zarurati ushbu sport turini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Jahonda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari tayyorlashga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari ko'lami tobora ortib bormoqda. Sportchilar tayyorlashning innovatsion uslublarini ishlab chiqish hamda xalqaro sport musobaqalarida yuqori natijalarni qayd etishda mutaxassis-kadrlar tayyorgarligi eng asosiy omil ekanligi xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilmoqda. Dunyo tajribasida jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari o'qitish, ularning professional tayyorgarligini oshirish hamda xalqaro standartlarga mos mutaxassis-kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish sport rivojining hozirgi sharoitida eng ustuvor masalalardan biri hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan xususiy talablar va ushbu sohada kadrlar tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish masalasida ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida ahamiyat qaratilyapdi. Xususan, xalqaro tajribalarga asosan kurash mutaxassislari tayyorlash tizimini takomillashtirish, hamda ularning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish kurash sportini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalariga muvofiq hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida kurash ustuvor sport turlaridan biri bo'lib, xalqaro miqyosida qo'lga kiritilayotgan sport natijalari mazkur sport turi bo'yicha rivojlanish holatini o'zida aks ettirmoqda. Bugungi kunda "kurash bo'yicha professional trenerlar, hakamlar tayyorlash, o'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish, kurashning ilmiy-metodik bazasini kuchaytirish" vazifasi¹ dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yurtimizda kurash bo'yicha professional kadrlar tayyorlash, hakamlar va murabbiylarning malakasini oshirish tendentsiyalari mazkur sohada olib borilayotgan tizimli islohotlarning natijasi hisoblanadi. Kurash nazariyasi va amaliyotiga doir tahlillar shuni ko'rsatadiki, mutaxassislar tayyorgarligini ilg'or xorijiy tajribalar asosida tashkil etish, kurash murabbiylari va professional kadrlar tayyorlashda samarali va ta'sirchan uslublarni qo'llash hamda kurashga doir ilmiy bilimlar ko'lamini oshirish zaruratini ko'rsatmoqda. Shu sababdan, yuqori malakali kurash mutaxassislari tayyorlashning raqobatbardosh

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-noyabrdagi PQ-4877-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

yondashuvlarini ishlab chiqish, xususan, kurash bo'yicha professional kadrlar tayyorlash tizimiga Osiyo va Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan sport turlarini rivojlantirish tajribasini integratsiya qilish zarurati yuzaga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-noyabrdagi PQ-4877-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 4-noyabrdagi "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4881-son Qarorlari hamda sohaga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ko'zda tutilgan vazifalar ijrosini amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga bog'liq holda amalga oshirilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Kurashga doir ilmiy-tadqiqot ishlari xorijiy mamlakatlarning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi yetakchi oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida olib borilgan. Rio de Janeyro Federal Universiteti [Braziliya], Rim Tor Vergata Universiteti [Italiya], Koruna Universiteti [Ispaniya], Koreya Sport va Olimpiya qo'mitasi [Janubiy Koreya], Rennes Universiteti [Fransiya] kabi universitetlarda ilg'or tajribalar amalga oshirilgan.

Jaxonda sport kurashlarining ayrim turlarida musobaqa faoliyatini modellashtirish va texnik-taktik jihatdan baholash mexanizmlari ishlab chiqilgan, natijada musobaqa faoliyatini tahlil etish metodikasi takomillashtirilgan [Rio de Janeyro Federal Universiteti, Braziliya].

Turli uloqtirish usullarining biomexanik tavsifi ishlab chiqilgan, natijada musobaqa faoliyati sharoitida turli uloqtirish usullarining qo'llanishi sharoitida sportchi organizmida energiya sarflanishi ilmiy jihatdan isbotlangan [Rim Tor Vergata Universiteti, Italiya]. Bundan tashqari, musobaqa va mashg'ulot sharoitida sportchi organizmining psixofiziologik va gormonal ko'rsatkichlari tahlil etilib sportchi organizmi va yuqori natijalarning o'zaro aloqadorligi ilmiy o'rganilgan [Koruna Universiteti, Ispaniya].

Xalqaro sport musobaqalarida, xususan, Osiyo o'yinlarida kurashchilarning jarohatlanish ko'rsatkichlari tahlil etilib amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan [Koreya Sport va Olimpiya qo'mitasi, Janubiy Koreya]. Kurashning tarixiy-madaniy rivojlanishi, hozirgi sharoitda uni ommalashtirish masalalari tahlil qilingan hamda kelgusida kurashni rivojlantirish imkoniyatlari prognoz qilingan [Rennes Universiteti, Fransiya]².

Jismoniy tarbiya va sportni ilmiy tadqiq etish muammolari bo'yicha xalqaro ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlari va dunyoning yetakchi xorijiy ilmiy markazlarida sport kurashlarining ayrim turlari bo'yicha turli yo'nalishlarda ilmiy-

²Dissertatsiya bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar quyidagi veb-sahifalar asosida tahlil etildi: <https://scholar.google.com>; <https://www.sports.or.kr>; <https://www.univ-rennes.fr>.

tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, sport tayyorgarligi tizimida tayyorgarlikning turli bosqichlarini o‘zaro uyg‘un tarzda tashkil etish, har xil vazn toifalari bo‘yicha ixtisoslashgan yondashuv asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish, jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali kadrlar tayyorlash muammolariga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kurashga doir ilmiy-tadqiqotlar bir qator mutaxassislar tomonidan olib borilganli adabiyotlarni tahlil qilish natijasida aniqlandi. Kurashni yoshlar va o‘smirlarga o‘qitish yuzasidan A.Atoyev, kurashning tarixiy, falsafiy, ijtimoiy-pedagogik jihatlarini yoritib berishga doir tadqiqotlar J.Toshpo‘latov hamda O‘.Ibrohimovlarning ilmiy izlanishlarida aks etgan. Shuningdek, harakatli o‘yinlarni kurash mashg‘ulotlariga joriy etish yuzasidan F.Kerimov, zamonaviy kurash qoidalari hamda kurashni o‘rgatish yo‘nalishlarida K.Yusupov, jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash masalasida A.Shopulatov kabi olimlarning ilmiy-uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishlari alohida diqqatga sazovordir. Qayd etish joizki, respublikamizning iqtidorli olimlari tomonidan kurashga doir dissertatsion tadqiqotlar amalga oshirilganligi ahamiyatga molikdir. Xususan, S.Kupalov, D.Nurishov, Sh.Keldiyorov, B.Erembetov, F.Bobomurodov, M.Shukurov, N.Chorshamiev, B.Xoliqovlarning dissertatsiya ishlari biz o‘rganayotgan muammoning ilmiy yechimlarini topishga xizmat qiladi³.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarning yetakchi olimlari T.T.Djamgarov, A.S.Puni, M.A.Godik, R.A.Piloyan, L.P.Matveev, A.A.Krasnikov, V.N.Platonov, R.D.Xalmuxamedovlarning tadqiqot ishlarida yakkakurash sport turlarida uzoq yillik tayyorgarlikni davrlashtirish, musobaqa va mashg‘ulot yuklamalarini baholash, individual mashg‘ulotlar tashkil etish, musobaqa faoliyatini modellashtirish, sportchilarni jismoniy tayyorgarligini oshirish, texnik-taktik tayyorlash hamda musobaqa kompetentsiyasini

³Атоев А. Ўсмир ва ёшларни курашга ўргатиш метод ва воситалари. Тошкент “Ўқитувчи”-1987. – 318 б.; Тошпўлатов Ж., Жумақулов А. Сурхон полвонлари. - Термиз: “Жайхун”, 1995. – 128-б.; Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти. Дарслик. – Т.: 2001. - 285 б.; К.Юсупов. Кураш: халқаро қоидалари, техникаси ва тактикаси. Т.: -2005. - 125 б.; Иброхимов Ў., Рафиев Х. Спорт ва кадрият. Тошкент, Янги аср авлоди. 2009. 100-б.; Купалов С.У. Мусобақадан кейинги босқичда курашчилар иш қобилиятининг тикланиш динамикаси. Фан номзоди илмий даражасини ошириш учун ёзилган диссертация. Т.: 2011. -140 б.; D.Nurishov. “Yosh kurashchilarda bazaviy elementlarni shakllantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish”, Педагогика фанларида фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. Чирчиқ-2018. - 49 б.; Б.Ерембетов. “Малакали курашчилар мусобақа ва машғулот жараёнини педагогик назорат қилишнинг назарий-методик асосларини такомиллаштириш”. Педагогика фанларида фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. Чирчиқ-2019. - 50 б.; Ш.Келдиёров. “Кураш миллий спорт тури ҳаракатларини дастлабки ўргатиш услубларини такомиллаштириш”. Педагогика фанларида фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. Чирчиқ-2019. - 47 б.; Ф.Бобомуродов. Курашчиларнинг морфологик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда техник-тактик ҳаракатларини такомиллаштиришга дифференциал ёндашув”. Педагогика фанларида фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. Чирчиқ-2020. -61 б.; М.Шукуров. “Курашчиларни техник ҳаракатларга ўргатишда кластер услубидан фойдаланишни такомиллаштириш”. Педагогика фанларида фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. Чирчиқ-2022. - 61 б.; Н.Чоршамиев. “Ёш курашчиларнинг тайёргарлик тизимида машқланиш ва тикланиш даражасини оширишда шарқона массаждан фойдаланиш методикаси”. Педагогика фанларида фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. Чирчиқ-2022. - 47 б.; Шопулатов А.Н. Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида малакали кадрлар тайёрлаш тизими механизмларини такомиллаштириш/ Пед. фан. док. дис.автореферати (DSc) – Чирчиқ-2023. – 77 б.; Б.Холиқов. Малакали курашчиларнинг техник-тактик ва жисмоний тайёргарлигини оптималлаштириш технологияси”. Педагогика фанларида фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. Чирчиқ-2023. - 64 б.

shakllantirish, yillik tayyorgarlik siklida yakkakurashchilar mashg'ulotlarini rejalashtirish hamda mashg'ulotlar tashkil etishning samarali uslublarini ishlab chiqish masalalari tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilgan⁴. Shunga qaramasdan kurash mutaxassislari tayyorlash jarayoniga Osiyo va Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan sport turlarini rivojlantirish tajribasini tatbiq etish va ilg'or xorijiy tajribalarni sohaga joriy etish muammosini ilmiy tadqiq etish dolzarbligicha qolmoqda.

Qayd etish kerakki, xorijlik tadqiqotchilarning sport kurashlariga doir ilmiy izlanishlari alohida diqqatga sazovordir. Xususan, R.M.Kalina, S.Foster, V.Issurin, M.Adam, M.Joanna, O.Zadorozhna kabi tadqiqotchilar sport nazariyasi va uslubiyatiga doir ilg'or tajribalar olib borganlar⁵. Uzoq yillik tayyorlgarlik davrlarini maqsadli rejalashtirish, mashg'ulotlar jarayoniga ijobiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlash, yuqori malakali sportchilarni psixologik tayyorlash bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilgan. Ko'p yillik tayyorgarlik jarayonida an'anaviy hamda innovatsion davrlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, turli rejalashtirish modellarining ijobiy tomonlari, sportchilar tayyorgarligi jarayonini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish masalalari ilmiy tadqiq etilgan. Bundan tashqari mashg'ulot jarayonida va musobaqa sharoitida jismoniy yuklamalarni baholash, yuklama shiddati va hajmining o'zaro muvofiq nisbatlarini ishlab chiqish, oliy sport mahorati bosqichida texnik-taktik tayyorgarlikning kontseptual tuzilishi yuzasidan takliflar berilgan. Ba'zi mutaxassislar tomonidan sportchilar tayyorlashning zaruriy shartlari aniqlangan va unga qo'yiladigan zamonaviy talablar belgilangan. Tayyorgarlik turlarining o'zaro mutanosibli, yuqori sport natijalarini qayd etishda muhim bo'lgan jihatlar mutaxassis-olimlar nuqtai nazari bo'yicha umumlashtirilib, qiyosiy tahlil etilgan va ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, ba'zi sport turlarida mutaxassislar tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari va ularga qo'yiladigan talablar doirasi o'rganilgan. Qayd etish kerakki, yuqoridagi tadqiqotlar kurash mutaxassislari tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqishda va kurashga oid ilmiy ma'lumotlar bazasini kengaytirishga xizmat qiladi. Shunga qaramasdan, kurash

⁴Джамгарова Т.Т., Пуни А.Ц. Психология физического воспитания и спорта: учеб. пособие для ин-тов физ. культуры / под ред. Т.Т. Джамгарова, А.Ц. Пуни. – М., ФиС, 1979. – 143 с.; Годик М.А. Контроль тренировочных и соревновательных нагрузок / М.А.Годик. – М.: Физкультура и спорт, 1980. – 136 с.; Пилюян Р.А. Индивидуализация подготовки спортсменов в видах единоборства: автореф. дис. д-ра пед. наук/ Р.А.Пилюян. - М.; - 1985. 50 с.; Матвеев Л.П. Общая теория спорта. Учебная книга для завершающих уровней высшего физкультурного образования. — М.: 4-й филиал Воениздата, 1997. -304 с.; Красников А.А. Проблема общей теории спортивных соревнований. М., Спорт Академия Пресс, 2003. - 324 с.; Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения / В.Н.Платонов. – Киев: Олимп.лит., 2004. - 808 с.; Халмухаммедов Р.Д. Технология подготовка единоборцев на этапах годичного цикла. Диссертация на соискание ученой степен доктора педагогических наук. Т., 2009.- 300 с.

⁵Kalina R.M. Teoria sportów walki [Theory of Combat Sports. In Polish]. COS, Warsaw. - 2000. Pp. 42-48.; Foster C., Florhaug J., Franklin J., Gottschall L., Hrovatin L., Parker S., Doleshal P., Dodge C. A New Approach to Monitoring Exercise Training. Journal of strength and conditioning research / National Strength & Conditioning Association. - 2001. Pp. 109-115.; Issurin V.A modern approach to high-performance training: the Block Composition concept. In: Blumenstein B, Lidor R, Tenenbaum G. Physiology of sport training. Oxford: Meyer&Meyer Sport. - 2007. Pp. 216-34.; Adam M., Joanna M. A Profile of Joanna Majdan's Individual Technical-Tactical Preparation. Baltic Journal of Health and Physical Activity. – 2011. – Pp. 269-276.; Zadorozhna O., Briskin Yu., Maryan P., Alina P., Neonila N. Tactical training of elite athletes in Olympic combat sports: practice and experience. Trends in Sport sciences. – 2020. Pp. 71-85.

mutaxassislari tayyorlash tizimini xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish muammosini ilmiy jihatdan yetarli darajada o'rganilmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini izohlaydi.

Ilmiy-uslubiy manbaalarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, kurash mutaxassislari tayyorlash amaliyoti ushbu sport turini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalariga to'la mos kelmaydi. Kurash bo'yicha professional kadrlar tayyorlashning yagona tizimini ishlab chiqish, malakali trenerlar va mutaxassislar tayyorlash hamda xalqaro miqyosida kurashni samarali o'qitishga ixtisoslashgan kadrlar tayyorlashda xorijiy tajribalarni qo'llash masalasi ilmiy jihatdan asoslab berilmagan. Yuqoridagi holat kurash mutaxassislari tayyorlash tizimini xalqaro tajribalarga asosan takomillashtirishning dolzarbligi va zaruratini ko'rsatadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqotlar rejasining №SJM-03 Sport pedagogik mahoratini oshirishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslari yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kurash mutaxassislari tayyorlash tizimini xorijiy tajribalar asosida takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

texnik usullarning ijro jihatidan o'zaro mosligi hamda mashg'ulot va musobaqa faoliyatida qo'llanilishiga ko'ra kurash usullarining muayyan guruhlar bo'yicha texnik tavsifini takomillashtirish;

xorijiy tajribalar bo'yicha Olimpiya va Osiyo o'yinlari dasturiga kiritilgan milliy sport turlarini rivojlantirish tajribasini kurash mutaxassislari tayyorlash tizimiga integratsiya qilish modeli ishlab chiqish;

kurashda mavjud texnik usullar tasnifini ularning muayyan guruhlarga mansubligi va musobaqa sharoitida qo'llanilishiga ko'ra mutaxassislar tayyorlash tizimiga joriy etish;

jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari tayyorlash yuzasidan ixtisoslikka xos zaruriy kasbiy kompetensiyalarni hisobga olib kurash mutaxassislari tayyorlash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantiruvchi moslashtirilgan o'quv dasturi ishlab chiqish;

kurash mutaxassislarining mustaqil bilim olish imkoniyatini oshirishga mo'ljallangan o'quv platformasi yaratish.

Tadqiqotning obyekti sifatida mutaxassislarni tayyorlash va malaka oshirish tizimida kurashni o'qitish jarayoni tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini xorijiy tajribalar asosida kurash mutaxassislari tayyorlash tizimini takomillashtirish vosita va usullari belgilangan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda adabiyotlarni tahlil qilish, kurash mutaxassislarining amaliy tajribasini o'rganish, so'rovnoma o'tkazish, SWOT tahlil, mashg'ulot va musobaqalarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, testlashtirish, pedagogik tajriba, matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kurashda mavjud usullarning ijro jihatidan o'zaro mosligi, texnik-taktik ko'rsatkichlar, mashg'ulot va musobaqa faoliyatida qo'llanilishi asosida ishlab

chiqilgan kurash usullarining muayyan guruhlar bo'yicha texnik tavsifini kurashni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalariga muvofiq mutaxassislar tayyorlash tizimida o'quv dasturlari mazmuniga singdirish hisobiga o'quv-mashg'ulotlari samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir etish imkoniyatini kengaytirilgan;

xorijiy tajribalar bo'yicha Olimpiya va Osiyo o'yinlari dasturiga kiritilgan milliy sport turlarini rivojlantirish evolyutsiyasi, ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish yondashuvi, kadrlar tayyorlash strategiyasi, maqsadga qaratilgan lokal va xalqaro kollaboratsiya imkoniyatlarini oshirish hamda natijadorlikka yo'naltirilgan jihatlarini tizimlashtirish asosida mutaxassislar tayyorlash tizimiga integratsiya qilish modeli ishlab chiqilgan;

kurashga xos intensiv-dinamik vaziyatlar, texnik-taktik holatlar hamda mashg'ulot va musobaqa faoliyatini vizual ifodalash asosida ishlab chiqilgan texnik usullar tasnifini ularning muayyan guruhga mansubligi va o'zgaruvchan musobaqa sharoitida qo'llanilishi, taktik kombinatsiya variantlarini amalga oshirish xususiyatlariga ko'ra mutaxassislar tayyorlash tizimiga joriy etish evaziga kurash texnikasi asoslariga doir amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyati kengaytirilgan;

jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari tayyorlash yuzasidan xalqaro standartlar, amaliy tajribalar, o'quv dasturlari hamda ixtisoslikka xos zaruriy kasbiy kompetensiyalar korrelyatsiyasini ta'minlash orqali kurash mutaxassislari tayyorlash bo'yicha sohaga doir bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantiruvchi [Key Competency] moslashtirilgan o'quv dasturi ishlab chiqish hisobiga kurash mutaxassislari tayyorlash tizimi takomillashtirilgan;

o'z-o'zini o'qitish tamoyili asosida ishlab chiqilgan "Learn Kurash" o'quv platformasi mazmuniga kurashda mavjud usullarning turli guruhlar bo'yicha texnik tavsifi, ularning qo'llanilishi, kurash texnikasi asoslarini tavsiflovchi terminlar katalogini vizual hamda matnli shaklda kiritish hisobiga kurash mutaxassislarning mustaqil bilim olish imkoniyatini oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kurash mutaxassislari tayyorlash va malaka oshirishda tizimida mutaxassislarning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

kurashni rivojlantirishning zamonaviy sharoitida ushbu sport turini xalqaro va mahalliy kurash mutaxassislarga o'qitishning ilmiy-uslubiy asoslari takomillashtirilgan;

xalqaro hamda mahalliy mutaxassislarga kurashni o'rgatish zaruratidan kelib chiqib kurash usullari tasnifi hamda kurash texnikasi asoslarini izohlovchi terminlar katalogi ishlab chiqilgan;

xalqaro va mahalliy mutaxassislarga kurashga doir bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil o'zlashtirish imkoniyatiga ega o'quv platformasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olib borilgan tajribalarning mantiqiy izchilligi, yagona va ozaro aloqador metodologik asosda olib borilganligi, yetakchi olimlar va jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va uslubiyati sohasidagi mutaxassislarning ilmiy qarashlari bilan

asoslanganligi, tadqiqot usullarining vazifalarga muvofiqligi, tadqiqot maqsadi, tajriba qamrovining yetarli hajmi va reprezentativligi, tadqiqot materiallari ustida miqdoriy va sifat tahlillarining amalga oshirilganligi, olingan natijalar matematik statistik usullar bilan qayta ishlanganligi, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish haqidagi dalolatnomalarning mavjudligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kurash sohasida professional kadrlar tayyorlash tizimining mazmuni, tuzilishi va uni amaliyotda qo'llash bosqichlari ushbu tajriba uslubiyati orqali asoslanib kelgusida malakali kurash mutaxassislarini tayyorlashni ko'zda tutuvchi ilg'or oquv dasturlarini ishlab chiqish, ularni amalda samarali qo'llash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish, qo'llanmalar va darsliklar yaratishda nazariy va ilmiy-uslubiy manbaa sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar bo'lajak kurash mutaxassislari tayyorlash tizimini takomillashtiruvchi omil sifatida ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga, kurash trenerlariga mashg'ulotlarni samarali tashkil etish hamda kurashning xalqaro nufuzini oshirish hamda kelgusida kurashni Olimpiya O'yinlari dasturiga kiritishdga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kurash mutaxassislarini tayyorlash tizimini xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish yuzasidan olib borilgan pedagogik tajribalar davomida olingan natijalar asosida:

kurashda mavjud usullarning ijro jihatidan o'zaro mosligi, texnik-taktik ko'rsatkichlar, mashg'ulot va musobaqa faoliyatida qo'llanilishiga doir ishlab chiqilgan kurash usullarining muayyan guruhlar bo'yicha texnik tavsifi mutaxassislar tayyorlash tizimiga joriy etilgan (Xalqaro Kurash Institutining 2024 yil 28 avgustdagi №115/08-24 sonli ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak kurash mutaxassislarining kurash usullarini turli guruhlar bo'yicha texnik tavsiflariga doir ko'nikma va bilim darajasi o'rtacha 62,5 ball dan 82,7 ballga yetishiga erishilgan;

xorijiy tajribalar bo'yicha Olimpiya va Osiyo o'yinlari dasturiga kiritilgan milliy sport turlarini rivojlantirish evolyutsiyasi va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish yondashuvi asosida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar kurash mutaxassislari tayyorlash tizimiga integratsiya qilingan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 20-noyabrdagi 02-07-0500/04-son ma'lumotnomasi). Natijada kurash mutaxassislarining professional tayyorgarlik darajasi 21%ga yaxshilangan;

kurashga xos intensiv-dinamik vaziyatlar, texnik-taktik holatlar hamda mashg'ulot va musobaqa faoliyatini vizual ifodalash asosida ishlab chiqilgan texnik usullar tasnifi yuzasidan taklif va tavsiyalar mutaxassislar tayyorlash tizimiga joriy etilgan (Xalqaro Kurash Institutining 2024 yil 28 avgustdagi №115/08-24 sonli ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak kurash mutaxassislarining kurash texnikasi asoslariga doir amaliy ko'nikmalari 59,2 ball dan 79,2 ballga oshirilgan;

jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari tayyorlash yuzasidan xalqaro standartlar, amaliy tajribalar, o'quv dasturlari hamda ixtisoslikka xos zaruriy kasbiy kompetensiyalar korrelyatsiyasini ta'minlash orqali kurash mutaxassislari tayyorlashga doir moslashtirilgan o'quv dasturi ishlab chiqilgan (Nizomiy

nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 20-noyabrdagi 02-07-0500/04-son ma'lumotnomasi). Natijada kurash mutaxassislari tayyorlash tizimi takomillashtirilgan;

o'z-o'zini o'qitish tamoyili asosida ishlab chiqilgan "Learn Kurash" o'quv platformasi mazmuniga kurashda mavjud usullarning turli guruhlar bo'yicha texnik tavsifi, ularning qo'llanilishi, kurash texnikasi asoslarini tavsiflovchi terminlar katalogini vizual hamda matnli shaklda foydalanish yuzasidan taklif va tavsiyalar kurash mutaxassislarning malakasini oshirish jarayoniga joriy etilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 20-noyabrdagi 02-07-0500/04-son ma'lumotnomasi). Natijada kurash murabbiylarining mustaqil bilim olish imkoniyati kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 35 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarida 12 ta maqola, ulardan bittasi xorijiy davriy nashrda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi 282 bet kompyuter matnida bayon etilgan bo'lib, kirish, 5 ta bob, 29 ta rasm, 18 ta jadval, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqotdan olingan natijalarning ishonchligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Xorijiy mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari tayyorlash amaliyoti**" deb nomlangan birinchi bobida dunyoda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanish holati, uning turli mamlakatlardagi ahvoli va insonlarning jismoniy tarbiya va sportga munosabatlari, xususan, jismoniy faollik bo'yicha turli mamlakatlarda aholisining ko'rsatkichlari, eng ommaviy bo'lgan jismoniy faollik turlari tahlil etilgan. Shuningdek, jahon tajribasida sport murabbiylari tayyorlash amaliyoti, uning o'ziga xos ijobiy jihatlari, Olimpiya va Osiyo o'yinlari dasturiga kiritilgan milliy sport turlarini rivojlantirish tajribasi muhokama etilgan.

Sport murabbiylari tayyorlash tajribasiga ko'ra, xorijiy mamlakatlarda turli xil yondashuvlar qo'llanilib kelinayotganligi aniqlandi. Masalan Germaniyada sport murabbiylari Kolon Germaniya Sport Universitetida (German Sport University Cologne) tayyorlanadi. Mazkur universitetda sohaga chuqur ixtisoslashgan hamda

tor doiradagi fanlarni puxta o'zlashtirish yo'lga qo'yilgan. Xitoy tajribasiga ko'ra Pekin Sport Universiteti (Beijing Sport University) mamlakatda jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash, milliy dasturlar ishlab chiqish va ilmiy-pedagogik-kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan asosiy ta'lim muassasasi hisoblanadi. Niderlandiyada jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari tayyorlashda sifat birlamchi mezon sifatida belgilangan bo'lib, universitetlarga yiliga o'rtacha 900-1200 nafar atrofida bo'lajak mutaxassislar qabul qilinadi va ularning o'rtacha 650 nafari bakalavr darajasini qo'lga kiritadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Braziliya, Kanada, Vengriya, Buyuk Britaniya, Janubiy Afrika, AQSH, Portugaliya, Ispaniya, Finlyandiya va Avstraliya kabi mamlakatlarning mazkur soha bo'yicha mutaxassislar tayyorlash tajribasi samarali bo'lib, ularning ijobiy tomonlarini O'zbekiston sharoitida kurash mutaxassislari tayyorlash tizimiga joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Milliy sport turlarini rivojlantirish, uni Olimpiya va Osiyo o'yinlari dasturiga kiritish yuzasidan olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, mazkur milliy sport turlarini ommalashtirishda ularning ta'lim tizimi bilan chuqur integratsiya qilinganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Janubiy Koreya, Indoneziya, Xitoy, Yaponiya mamlakatlarining milliy sport turlarini rivojlantirish yuzasidan olib borgan siyosati hamda tizimli ishlari diqqatga sazovordir. Taekvondo, dzyudo, penchak silat kabi Olimpiya va Osiyo o'yinlari dasturiga kiritilgan sport turlarini rivojlantirish strategiyasida ushbu sport turlarining ta'lim tizimining deyarli barcha bosqichlariga izchil joriy etilganligi muhim o'rin tutishini alohida e'tirof etish lozim. Xususan, taekvondo Janubiy Korea ta'lim tizimining barcha bosqichlarida mustahkam o'ringa ega bo'lib, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab bolalarga o'rgatiladi. Huddi shuningdek, dzyudo sport turi ham Yaponiya ta'lim tizimida moslashtirilgan holda, shug'ullanuvchining imkoniyatlariga ko'ra qo'llaniladi. Bu jarayon mohiyatiga ko'ra uzluksizlik asosida yo'lga qo'yilgan bo'lib, keyinchalik universitetlar va ta'limning boshqa bosqichlarida ham muayyan darajada o'z ifodasini topadi. Xulosa qilib aytganda, muayyan sport turning ta'lim tizimiga izchil tatbiq etilishi natijasida ushu sport turini yanada rivojlanishi va ommalashishida katta ahamiyat kasb etgan.


Olimpiya va Osiyo o'yinlari dasturidan joy olgan milliy sport turlarini rivojlantirishning yana bir muhim omili ushbu sport turlarida ilmiy-tadqiqotlarning samarali yo'lga qo'yilganligi hisoblanadi. Bunda faqat muayyan sport turida sportchilar tayyorlash, yuqori natijalarni egallashga doir ilmiy izlanishlar emas, balki, ushbu sport turning ijtimoiy ahamiyati, pedagogik imkoniyatlari, ularning tomoshabopligini oshirish va shu kabi yo'nalishlardagi tadqiqotlarni e'tirof etish kerak. Masalan, dzyudo va taekvondo bo'yicha chuqur ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilib, ushbu sport turlarini har tomonlama ilmiy o'rganishga alohida ahamiyat qaratiladi. Yaponiya va Janubiy Koreyaning bir qancha universitetlarda dzyudo va taekvondo ixtisosligida ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlanishi hamda sohaga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqotlar olib borilishi samarali yo'lga qo'yilgan. Har yili Janubiy Korea hukumati ko'magida taekvondo ixtisosligida o'qish va ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar universitetlarga taklif etiladi.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari tayyorlash amaliyoti hamda milliy sport turlarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar tahliliga asosan qayd etish joizki, mutaxassislar tayyorlashda ixtisoslikka yo'naltirilgan bilimlarni egallash, ta'lim va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining o'zaro uyg'unligini ta'minlash ushbu sohada malakali mutaxassislar tayyorlashning asosiy omili hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Yakkakurash mutaxassislari tayyorgarligining ilmiy-metodik masalalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida xalqaro tajribalarda yakkakurash mutaxassislari tayyorlashning ilmiy-metodik masalalari, zamonaviy sportda qo'llanilayotgan turli yondashuvlar va uslubiyatlar, sportchilar tayyorlash tizimini boshqarish masalalari, xorijiy mamlakatlarda sportchilar tayyorlash tizimini tartibga solishda mutaxassislarning o'rni bayon qilingan. Shuningdek, ushbu bobda kurash mutaxassislari tayyorlash tizimini takomillashtirish zarurati va uni yuzaga keltiruvchi sabablar atroflicha yoritib berilgan.

Dissertatsiya ishiga doir bir qancha tadqiqotlar va ilmiy-uslubiy ishlar olib borilgan. Xususan, A.Atoyev, O'lbrohimov, N.Azizov, O.Toymurodov, K.Yusupov, J.Toshpulatov, F.Kerimov kabilarning ishlari kurash mashg'ulotlarini tashkil etish va yoshlarga kurashni o'rgatish muammolariga qaratilgan. Kurash falsafasi, kurash tarixi va uning ijtimoiy-pedagogik masalalari yo'nalishlarida J.Tulenov, A.Asqarov, M.Murodov, I.Jabborov, T.Javliev, U.Qoraboev, T.Odilov, T.Obidov, U.Qoraboev, H.Bobobekov, H.Rafiyev, F.Axmedov, A.Abdulaxatov kabilar olimlar tadqiqot ishlari olib borganlar. Tadqiqot ishiga doir adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, ilmiy-tadqiqot va ilmiy uslubiy manbaalar doirasi muayyan yo'nalishda bo'lib, ularning aksariyati kurash tarixi (53%), kurash falsafasi va kurashning ijtimoiy-pedagogik jihatlarini (29,12%) tadqiq etishga qaratilgan. Biroq, kurash mutaxassislari tayyorlash tizimini takomillashtirishda xorijiy tajribalarni qo'llashga doir dissertatsion tadqiqotlar olib borilmagan.

Tadqiqot doirasida xorijiy va mahalliy kurash ekspertlarining kurashga doir dolzarb ilmiy-uslubiy yo'nalishlar, jumladan mutaxassislar tayyorlashda muhim bo'lgan jihatlar haqidagi fikrlari o'rganildi. So'rovnoma mazmuniga ko'ra, ekspertlar kurashga doir eng muhim tadqiqot yo'nalishlarini belgilab berishlari taklif etildi. Xalqaro ekspertlarning 78%i kurash usullari tasnifini takomillashtirish muhim ekanligini qayd etishgan. Ikkinchi darajali yo'nalish sifatida esa (56%) kurash texnikasini tavsiflovchi terminlar katalogini ishlab chiqish, uchinchi darajali yo'nalish sifatida esa murabbiylik va hakamlik masalalariga doir bilimlarni takomillashtirish muhimligi belgilangan (14%).



1-rasm. Xorijiy kurash ekspertlarining so'rovnoma natijalari (n=74)

Dissertatsiya ishiga doir ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish hamda ularni qiyosiy tahlil qilish, kurash ekspertlarining fikrlarini o‘rganish natijalari ushbu sport turida mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarurligini tasdiqladi.

Dissertatsiyaning “**Kurashni rivojlantirishning zamonaviy sharoitida mutaxassislar tayyorlash holati**” deb nomlangan uchinchi bobida kurashni rivojlantirishning hozirgi holatida mashg‘ulotlarni tashkil etish, mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashgan o‘quv dasturlarining mazmuni, turli malaka va jinsga mansub kurashchilarning musobaqa faoliyati ko‘rsatkichlari hamda kurash mutaxassislariga qo‘yiladigan talablar yoritib berilgan.

Kurash mashg‘ulotlarida jismoniy yuklamalar nisbati qiyosiy tahlil qilinganda umumiy mashg‘ulot vaqtiga nisbatan 2-3 va 5 shiddat zonalarida asosiy “ish” bajarilganligi aniqlandi. Tahlil etilgan mashg‘ulotlar uchun o‘rtacha 104±12 daqiqa sarflangan bo‘lsa, 2-shiddat zonasida bajarilgan mashqlar 34±2 daqiqani (33%), 3-shiddat zonasida bajarilgan mashqlar esa 19±3 daqiqani tashkil etgan (18%). Maksimal shiddat zonasida bajarilgan mashqlar ulushi esa umumiy mashq uchun ketgan vaqtning 15%ni tashkil etgan. 1-va 4- shiddat zonalardagi yuklama mos ravishda 10±2 (9,6%) va 12±3 (11,5%) daqiqadan iboratligi tekshirishlar natijasida aniqlandi.

Kurash mutaxassislarini tayyorlashga mo‘ljallangan o‘quv dasturlarida kurash terminlari, usullar nomlari va shu kabi boshqa kurashga xos jihatlar turlicha tasdiqlangan. O‘zbekistondagi 8 ta oliy ta’lim muassasalari va 1 ta mutaxassislarning malakasini oshirish instituti o‘quv dasturlari tahlil etilganda hozirda mutaxassislar tayyorlash dasturlarida kurashga xos tushunchalar yagona tizimga solinmaganligi aniqlandi. Kurash terminlari va usullar nomlari turli o‘quv dasturlarida turlicha ko‘rsatilgan bo‘lib, bu o‘z navbatida bo‘lajak mutaxassislarda kurashga doir bilimlarning tabaqalanishiga olib keladi. O‘quv dasturlarining tahlili asosida aniqlandiki, Xalqaro Kurash Assotsiyasi tomonidan tasdiqlangan usullar tasnifi va o‘quv dasturlari mazmunida o‘zaro nomuvofiqlik mavjud (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Xalqaro Kurash Assotsiyasi hamda amaldagi o‘quv dasturlarida kurash usullarining nomlanishi

XKA tasnifi	O‘quv dasturlarida qo‘llanilishi
Yeng-yoqa	Qo‘l va yoqani ushlagan holda yelkadan oshirib tashlash
Teskari yelka	Englardan ushlab yoqadan oshirib tashlash
Ichkariga oyoq bilan	Raqibning oyoqlari ichidan bir oyoq yordamida ko‘tarib tashlash
Engashib yelka	Tizzalarga yarim o‘tirgan holda yelkadan oshirib tashlash
Yelka-oldidan chalish	Yengi va yoqasidan ushlab oyoqlar yordamida chalib yiqitish
Orqadan chalish	Orqaga chalib tashlash
Ichki ildirma	Oyoqlar ichidan oyoq bilan ilib orqaga yiqitish
Orqadan chalish	Tovonning orqasidan ilib yiqitish
Ildirma	Raqibni oyog‘i orqasidan to‘sib ko‘tarib tashlash
Qo‘shsha-boldir	Qo‘lni bel yuqorisidan ushlagan holda oyoqlar yordamida ko‘tarib tashlash

Mutaxassislar tayyorlashda o'qitiladigan fanlar mazmuni va ularning ixtisoslikka integratsiya qilinganligi muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida kurash mutaxassislari tayyorlash bo'yicha O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti hamda taekvondo mutaxassislari tayyorlash bo'yicha Koreya Milliy Sport Universiteti bakalavr akademik darajasi uchun mo'ljallangan o'quv rejalari o'zaro taqqoslandi (2- jadvalga qarang).

Taekvondo ixtisosligida bo'lajak mutaxassislarga o'qitiladigan fanlar bloki, ularning mazmuni eng yuqori darajada tanlangan ixtisoslikka yo'naltirilgan. Bunda barcha fanlar ularning nomlanishi, mazmuni, fanni o'qitishda bo'lajak mutaxassisga beriladigan bilimlar aynan tanlangan sport turi bilan bevosita integratsiya qilishga erishilgan. Kurash ixtisosligi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash o'quv rejasida esa nisbatan keng va ixtisoslikdan muayyan darajada uzoq bo'lgan bilimlar majmuini ko'rish mumkin. Masalan, falsafa, sport biomexanikasi va boshqa shu kabi fanlar. Qiyosiy tahlillarga ko'ra xulosa qilish kerakki, kurash mutaxassislari tayyorlash tizimini muayyan fanlarni o'qitish jarayonini optimallashtirish orqali takomillashtirish zarur.

Tanlangan ixtisoslikka yo'naltirilgan fanlar nisbatining yuqori ekanligi dunyoning boshqa oliy ta'lim muassasalarida ham yo'lga qo'yilganligi diqqatga sazovordir. Xususan, fanlarning muayyan ixtisoslikka yo'naltirilganligi Malayziya Putra Universitetida (Malayziya) umumiy fanlarga nisbatan 90%, Pekin Sport Universitetida (Xitoy) 100%, Vengriya Sport Universitetida (Vengriya) 90%, Koruna Universitetida (Ispaniya) 90% va Rio De Janeyro Universitetida (Braziliya) 100%ni tashkil etmoqda. Taqqoslash uchun O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika institutida kurash ixtisosligi talabalari uchun mo'ljallangan fanlarning sohaga ixtisoslashganligi 25% dan iboratligi aniqlandi.

Yuqorida keltirilgan tahliliy ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, muayyan sport turi bo'yicha mutaxassislar tayyorlashning asosiy shartlaridan biri sifatida o'quv dasturlari va rejalari, ta'lim mazmuni hamda o'qitish sifatining maqsadga muvofiqligi hisoblanadi. Shunga ko'ra kurash mutaxassislari tayyorlash borasida ushbu yondashuvni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

2-jadval

Korea Milliy Sport Universiteti va O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetlari bakalavriyat bosqichida milliy sport turlarini o'qitish dasturlarining qiyosiy tahlili (taekvondo-kurash)

Korea Milliy Sport Universiteti	O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Institutlarda taekvondoni o'qitish	-
Taekvondoning zamonaviy tarixi	-
Taekvondo falsafasi	Falsafa
Taekvondo mashg'ulotlari metodlari	Kurash nazariyasi va uslubiyati
Taekvondo pumsai (texnikasi)	-
Taekvondoni o'qitish metodlari	-
Taekvondo texnikasini biomexanik tahlil qilish	Sport biomexanikasi
Taekvondo texnikasini anatomik tahlil qilish	-

Taekvondo va Sport diplomatiyasi	-
Taekvondo nutritsiyasi tahlili	-
Taekvondoda hakamlilik	-
Taekvondoda psixologik tahlil	-
Taekvondo musobaqalariga rahbarlik	-
Taekvondo mashg'ulotlari va ko'rgazmalar	-
Taekvondo muammolari bo'yicha seminarlar	-
Taekvondo boshqaruvi	-
Taekvondo tadbirlarini tashkil etish	Sport tadbirlarini tashkil etish
Jang san'atlari qiyosiy tahlili	-
Taekvondo fanida tadqiqot usullari	-
Taekvondo tadqiqotlarida statistika	-

Yuqoridagi jadvaldan ko'rish mumkinki, kurash mutaxassislari tayyorlashga ixtisoslashgan o'quv rejasi va muayyan fanni o'qitishga yo'naltirilgan fan mazmunini kurash sportining ilmiy-nazariy va amaliy masalalarini mutaxassislar tayyorlash tizimiga tatbiq etish zarurati yuzaga keladi. Ushbu yondashuv orqali kurash mutaxassislarining ixtisoslik bo'yicha chuqur bilim va ko'nikmaga ega bo'lishini ta'minlash imkoniyati oshiriladi.

Dissertatsiya ishining **“Kurash mutaxassislari tayyorlash tizimida xorijiy tajribalarning qo'llanilishi”** deb nomlangan to'rtinchi bobida Olimpiya va Osiyo O'yinlari dasturiga kiritilgan yakkakurash (taekvondo, penchak silat, dzyudo) sport turlariga xos bo'lgan rivojlanish tajribasi hamda ushbu sport turlarida mutaxassislar tayyorlash amaliyoti kurash mutaxassislari tayyorlash tizimiga joriy etilishi yoritib berilgan.

Tadqiqot jarayonida kurashda mavjud usullarning turli guruhlar bo'yicha o'ziga xosligi va farqli jihatlari hisobga olib ularning texnik tavsifi ishlab chiqildi. Kurashda mavjud usullar ularning umumiy jihatlari hamda ma'lum texnik asoslarga egaligiga ko'ra muayyan guruhlariga tegishli hisoblanadi. Tadqiqot davomida mazkur guruhga mansub bo'lgan usullar uchun xos bo'lgan umumiy texnik tavsifi takomillashtirildi. Ma'lumki, kurashda mavjud usullar 7ta guruhga ajratiladi. Ushbu guruhlar uchun xos bo'lgan texnik tavsiflashtirish quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Kurashda mavjud usullarning muayyan guruhlar bo'yicha texnik tavsifi

Guruh nomi	Mavjud usullar soni	Uloqtirish yo'nalishi	Vertikal yoki gorizontal o'q atrofida aylanish
Yonbosh	4	Oldinga va yonga	Vertikal
Yelka	10	Ko'proq oldinga	Vertikal
Yuklama	8	Oldinga va yonga	Gorizontal
Chil	7	Orqaga	Gorizontal
Supurma	6	Oldinga, Yonga, Orqaga	Gorizontal
Bardor	7	Oldinga	Gorizontal
Qo'shsha	13	Oldinga	Gorizontal

Ta'kidlash kerakki, kurash usullarining nomlanishi va ularning tsniflanishi 2019 yilda rasman Xalqaro Kurash Assostsiyasiyasi tomonidan tasdiqlangan bo'lib, shu davrdan buyon mazkur tasniflashtirish borasida deyarli o'zlashtirish

kuzatilmagan. Shunga ko‘ra tadqiqot davomida ushbu usullar tasnifi takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqildi. Quyidagi 4-jadvalda kurash usullarini takomillashtirish yuzasidan kiritilgan takliflar keltirilgan.

Usullarni tasniflashtirishda quyidagi talablarni bajarish belgilab olindi:

1) Usullar umumiy xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak. Bunda ma‘lum bir guruhga mansub uloqtirishlar umumiy qoidalar, texnik ko‘rsatkichlar, usulni bajarishdagi o‘ziga xosliklar o‘zaro bog‘liq bo‘lishi kerak.

2) Usullar nomi xorijiy va mahalliy mutaxassislarning foydalanishlari uchun eng maqbul darajada bo‘lishi kerak.

3) Usullar nomi texnik harakatni aks ettirishi kerak.


4-jadval

Kurash usullarini takomillashtirish yuzasidan takliflar

XKA tasnifi	Taklif etilgan tasnif
“Yonbosh” guruhi	
Bir qo‘ldan	Yonbosh qo‘ldan
Oyoqni kirgazib tashlash	Yonbosh ichkaridan
Yonbosh qo‘ldan	Yonbosh beldan
Jami takliflar	3
“Bardor” guruhi	
Ayiq quchoq	Quchoqlab otish
Bo‘yindan oshirib tashlash	Bo‘yindan oshirish
Ko‘krakdan yonga oshirish	Ko‘krakdan oshirish
Jami takliflar	3
“Chil” guruhi	
Qarshi usul ichki chil	Qarshi chil
Qarshi usul ildirma	Qarshi ildirma
Jami takliflar	2
“Supurma” guruhi	
Juft	Juft supurma
Oldindan chalish	Oldindan supurma
Orqadan chalish	Orqadan supurma
Yonga chalish	Yondan supurma
Jami takliflar	4
“Yuklama” guruhi	
Bel oshirish	Beldan oshirish
Qarshi usul yuklama	Qarshi yuklama
Jami takliflar	2
“Yelka” guruhi	
Qarshi usul yelka	Qarshi yelka
Yelka burama	Engdan yelka
Jami takliflar	2
“Qo‘shsha” guruhi	
Bir yoqadan oyoq bilan ildirib	Yoqa-qo‘shsha
Ildirib	Elka-qo‘shsha
Ichkariga oyoq bilan	Ichki qo‘shsha
Qarshi usul hatlab	Qarshi hatlab
Jami takliflar	4

Ushbu tasniflashtirishda “Yonbosh” guruhi uchun jami 3ta, “Bardor” guruhi uchun 3ta, “Chil” guruhi uchun 2ta, “Supurma” guruhi uchun 4ta, “Yuklama” guruhi uchun 2ta, “Yelka” guruhi uchun 2ta, “Qo‘shsha” guruhi uchun 4ta.

Kurash texnikasi asoslariga doir terminlar katalogi mashg‘ulotlar va musobaqalar jarayonida dinamik vaziyatlarni qisqa va tezkor izohlash, kurashga doir tushunchalarni bir ma‘noda anglashga xizmat qiladi. Yuqorida qayd etganimizdek, kurash sportida mazkur terminlar foydalanish uchun yetarlicha emasligi hamda ularning ro‘yxatini kengaytirish zarurati xorijlik va mahalliy kurash mutaxassislari tomonidan olib borilgan so‘rovnomada aniqlangan edi. Shunga ko‘ra o‘quv-mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishga qaratilgan kurash texnikasi mazmunini ifodalovchi terminlar ro‘yxatini kengaytirish borasida tajribalar olib borildi. Bunda ma‘lum texnik harakatlar ularning bajarilishidagi vaziyatga mos va ushbu vaziyatni anglatishiga ko‘ra nomlandi. Taklif etilgan terminlar katalogi texnik elementlar va harakatlarni qisqa izohlash, foydalanuvchilar uchun uni tezda tushunish imkonini berishga yo‘naltirildi. Yaxlit bir texnik harakatni qisqa va aniq tushunishga imkon berishi hamda mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishga xizmat qilishi ilmiy faraz qilindi. Taklif etilgan terminlar to‘g‘risida quyidagi rasmda ma‘lumot keltirilgan.



1-rasm. Kurash terminlari katalogi

Tadqiqot vazifasida belgilanganidek, Olimpiya va Osiyo o‘yinlari dasturiga kiritilgan sport turlarida mutaxassislar tayyorlash dasturlarining ilg‘or jihatlarini kurash mutaxassislari tayyorlash jarayoniga tatbiq etish maqsadida mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashgan o‘quv dasturi mazmuniga tegishli takomillashtirishlar

kiritildi. Bunda kurash murabbiylarining malakasini oshirish kursida o‘qitiladigan “Kurash nazariyasi va uslubiyati” moduli unga ajratilgan soatlarga o‘zgartirish kiritilmagan holda dasturda mavjud mavzularga tegishli takliflar kiritildi (5-jadval).

5-jadval

“Kurash nazariyasi va uslubiyati” moduli

№	Mavzular	Mazmuni	Soat
Nazariy mashg‘ulotlar			
1	Kurash falsafasi. Kurashning sport turi sifatida rivojlanishi va xalqaro sport tasnifiga integratsiyasi	Kurash falsafasi, uning sport turi sifatida shaxs tarbiyasidagi roli. Kurash sportining umume’tirof etilishi, Xalqaro Kurash Assostsiyasiasining tashkil etilishi va rivojlanishi.	4
2	Kurash va boshqa yakkakurash sport turlarining qiyosiy tahlili	Kurash va boshqa yakkakurash sport turlarining qiyosiy tahlili, ularning o‘ziga xosligi. Kurashning sport turi sifatida xususiy jihatlari tahlili.	4
3	Kurash texnikasi asoslari, terminologiyasi va usullar tasnifi	Kurash texnikasi, texnik usullar tasnifi, terminologiyasi.	4
4	Kurashni ommalashtirish va rivojlantirish strategiyasi	Kurashni kelgusida Olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritish istiqbollari. Xalqaro sport musobaqalari dasturiga kurashni kiritish masalalari.	4
5	Turli yosh va jinsga mansub kurashchilar bilan mashg‘ulotlarni tashkil etish tizimi	Bolalar, yoshlar va o‘smirlar bilan, shuningdek, ayollar bilan kurash mashg‘ulotlarini tashkil etish xususiyatlari.	4
6	Kurash mashg‘ulotlarida murabbiylarining roli	Kurash murabbiylari modeli. Kurash murabbiylarining roli. Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish, rivojlantirish va tarbiyalash.	4
Jami			24

Ushbu dasturda kurash murabbiylariga sohaga doir eng zarur bilimlarni berish, ular uchun amaliyotda foydalanishda muhim bo‘lgan ma’lumotlar tegishli mavzular bo‘yicha kiritildi. Kurash murabbiylari uchun tavsiya etilgan o‘quv dasturi 5-jadvalda tasvirlangan.

Tadqiqot vazifasiga ko‘ra kurash mutaxassislarining mustaqil bilim olish imkoniyatini oshirish, kurashga doir bilimlarni kengaytirishga mo‘ljallangan “Learn Kurash” o‘quv platformasi ishlab chiqildi.

Foydalanuvchi tegishli havola orqali platformaga kiradi va undan foydalanish bo‘yicha dastlabki tushuntirishlar bilan tanishadi. Mazkur bo‘limda


platformadan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma keltirilgan. Shundan so'ng foydalanuvchi platformaning navbatdagi ikkinchi qismiga o'tadi.

O'quv platformasining ikkinchi qismi "Nazariy ma'lumotlar" deb nomlanib, ushbu bo'limda kurashga doir bazaviy ma'lumotlar, jumladan, kurash tarixi, kurashning rivojlanishi va kurashning ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini aks ettiruvchi, uning tarbiyaviy asoslarini ko'rsatib beruvchi materiallar kiritildi. O'quv platformasining mazkur qismi kurashga doir birlamchi bilimlar va ma'lumotlar bilan tanishtirishni nazarda tutadi.

O'quv platformasining uchinchi qismi "Kurash texnikasi asoslari" deb nomlanadi. Mazkur bo'limda texnikasi asoslarini tashkil etuvchi tushunchalar tasvirlangan. Xususan, "Turish holati", "Harakatlanish", "Ushlash", "Muvozanat", "Yiqilish", "Takrorlash", "Bellashuv" kabi asosiy texnik harakatlar tavsifi va ularning tasvirli izohi berilgan. Shuningdek, ushbu bo'limda maxsus atamalarning o'zbek, ingliz, fransuz va arab tillaridagi tarjimalari kiritilgan.

O'quv platformasining so'nggi to'rtinchi qismi "Kurash usullari" deb nomlanadi. Mazkur qismda kurash usullarining nomlari, ularni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar va tavsifiy materiallar kiritilgan. Platformaning umumiy tavsifi quyidagi rasmda tasvirlangan.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan "Learn Kurash" o'quv platformasi quyidagi 2-rasmda tasvirlangan.



2-rasm. "Learn Kurash" o'quv platformasi tuzilishi

O'quv platformasida mavjud ma'lumotlar Xalqaro Kurash Assotsiyatsiyasi tomonidan belgilangan tegishli normalar, mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlar va tadqiqot ishlarini hisobga olgan holda ishlab chiqildi.


Kurash mutaxassislari tayyorlash tizimiga xorijiy tajribalarning integratsiya qilinishi, Olimpiya va Osiyo o'yinlari dasturiga kiritilgan sport turlarini rivojlantirish tajribasi hamda mutaxassislarning tayyorlashning ilg'or uslubiyatlaridan foydalanish o'zining samaradorligi va natijadorligi bilan farqlanadi. Yuqoridagi fikrlarga ko'ra kurash mutaxassislari tayyorlash tizimini yangicha yondashuv

asosida tashkil etishga ustuvor masala sifatida ahamiyat qaratilgan (2-rasm). Bunda quyidagi natijalarga erishish nazarda tutiladi:

1. Ilg'or yondashuvlarning joriy etilishi natijasida kurash sportini o'qitish sifati yaxshilanadi. Natijada mutaxassislar tayyorlash tizimining didaktik asoslari takomillashtiriladi.

2. Kurash mutaxassislarining bilim, ko'nikma va malakasi, kasbiy tayyorgarlik va ijodiy fikrlash imkoniyati kengayadi. Natijada kurashni rivojlantirishning kelgusi istiqbollari va uni yanada ommalashtirish muammolariga yangi yechimlar taklif etiladi.

3. Kurash mutaxassislari tayyorlash borasida lokal va xalqaro aloqalar integratsiyasi kuchayadi, kurashni rivojlantirish, ushbu sport turini kelgusida Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritish strategiyasi takomillashtiriladi. Natijada kurash sportining xalqaro nufuzining ortishi, uning jahon maydonidagi o'rnini mustahkamlanishiga erishiladi.



3-rasm. Kurash mutaxassislari tayyorlash tizimini takomillashtirish modeli

Kurash mutaxassislari tayyorlash tizimini takomillashtirishda respublikamizdagi kurash mutaxassislari tayyorlashga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalari hamda Xalqaro Kurash Assotsiyatsiyasi va uning tarkibidagi tashkilotlar (Xalqaro Kurash Instituti, milliy federatsiyalar) hamkorligi yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, kurash mutaxassislari tayyorlashda qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash ham amalga oshiriladi. Bunda ta'limning bakalavriyat, magistratura va doktorantura bosqichlari qamrab olinadi. Ikkinchi

darajali bosqich sifatida ilmiy-tadqiqotlar olib borish, hamkorlikdagi seminarlar, o'quv kurslari tashkil etiladi.

Dissertatsiyaning **“Kurash mutaxassislari tayyorlash tizimini xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish samaradorligi”** deb nomlangan beshinchi bobida tajriba davomida amalga oshirilgan tadqiqot natijalarining amaliyotda qo'llanilishi, uning samaradorligi hamda olingan natijalarning statistik ko'rsatkichlari tavsiflangan.

Bo'lajak kurash mutaxassislari bilan olib borilgan tajriba ishlari shuni ko'rsatdiki, kurashda mavjud usullarning turli guruhlar bo'yicha texnik xususiyatlarini tavsiflashtirish kurashni o'rgatish sifati va samaradorligiga ijobiy ta'sir etdi.

Bo'lajak kurash mutaxassislari kurashga doir bilimlar berish jarayonida kurash usullari guruhining texnik tavsiflashtirish borasida ma'lumotlar berildi. Kurash usullarining tegishliligi bo'yicha guruhlariga mansubligi, ularning xususiy jihatlari va murakkabligiga ko'ra ketma-ketlik asosida bo'lajak mutaxassislarga tushuntirildi va darsdan tashqari o'quv-mashg'ulotlariga joriy etildi.

Olib borilgan tajribalar shuni tasdiqladiki, ishlab chiqilgan ulotirish usullari guruhini o'zaro farqlash, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganuvchilarga tushuntirish hamda o'quv-mashg'ulot jarayonida qo'llash bo'lajak mutaxassislarning amaliy ko'nikmalari yaxshilanishiga olib keldi. Tajriba natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlar 6-jadvalda keltirib o'tilgan.

Kurash usullari guruhiga doir ko'nikmalarni baholash natijalariga ko'ra “XKA tasnifi bo'yicha kurash usullari guruhini tavsiflash” bo'yicha tajriba boshida o'rtacha o'zlashtirish 61 ballni tashkil etgan bo'lsa, tajribadan so'ng bo'lajak kurash mutaxassislarning mazkur ko'rsatkich bo'yicha natijalari o'rtacha 86 ballga teng bo'ldi. Tajribagacha va tajribadan so'ng olingan natijalar o'rtasida ishonchli statistik farq kuzatildi ($t=2,69, P\leq 0,01$).

“Supurma” guruhiga doir usullarni bajarish topshirig'i bo'yicha ham tajriba boshidagi hamda tajriba so'ngidagi natijalar o'rtasida ham ijobiy o'sish kuzatildi. Xususan, tajribagacha sinaluvchilarning o'rtacha ko'rsatkichi 59 balldan iborat bo'lgan bo'lsa, tajribadan so'ng o'rtacha natija 83 ballga teng bo'lgan. Ishonchlilik darajasi bo'yicha esa ijobiy ko'rsatkich qayd etilgan ($t=2,18, P\leq 0,05$).

“Bardor” guruhiga mansub usullarni bajarish” topshirig'i bo'yicha tajribagacha o'rtacha ko'rsatkich 63 ball bo'lgan. Tajriba so'ngida bo'lajak kurash mutaxassislarning o'rtacha bilim darajasi 81 ballni tashkil etib, sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Natijalar o'rtasidagi statistik farq $t=2,14, P\leq 0,05$ ga teng bo'ldi.

“Qo'shsha” guruhida raqib tanasi harakatini bajarish” topshirig'i bo'yicha ham ijobiy o'zgarishlar qayd etildi. Xususan, bo'lajak kurash mutaxassislari tajribagacha o'rtacha 67 ball qayd etgan bo'lsa, tajribadan so'nggi tekshirishlar natijasida ularning o'rtacha bilim ko'rsatkichlari 81 ballga etganligi aniqlandi. Natijalar o'rtasida ijobiy statistik ishonchlilik kuzatildi ($t=2,19, P\leq 0,05$). Tajriba natijalari haqidagi ma'lumotlar quyidagi 6-jadvalda keltirilgan.

Tajribagacha va tajribadan so‘ng kurash usullarining turli guruhlar bo‘yicha texnik tavsiflashga doir bilimlarni baholash natijalari (n=94)

Tajriba jarayoni	Natijalar			O‘rtacha o‘zlashtirish	t	P
	A‘lo	Yaxshi	Qoniqarli			
XKA tasnifi bo‘yicha kurash usullari guruhi						
Tajriba boshida	10	43	41	61±2,1	2,69	≤0,01
Tajriba so‘ngida	16	46	32	86±3,4		
“Supurma” guruhiga mansub usullarni bajarish						
Tajriba boshida	17	31	46	59±4,0	2,18	≤0,05
Tajriba so‘ngida	23	40	31	83±3,1		
“Bardor” guruhiga mansub usullarni bajarish						
Tajriba boshida	14	36	44	63±5,0	2,14	≤0,05
Tajriba so‘ngida	20	42	32	81±3,2		
“Qo‘shsha” guruhida raqib tanasi harakati						
Tajriba boshida	15	37	42	67±3,2	2,19	≤0,05
Tajriba so‘ngida	22	43	29	81±4,1		

Kurash usullari tasnifi bo‘yicha olib borilgan tajribalar shuni tasdiqladiki, takomillashtirilgan usullar tasnifi bo‘lajak mutaxassislarining usullarga doir bilim va ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qildi. Darsdan tashqari o‘quv-mashg‘ulotlarida texnik-taktik tayyorgarlik qismida usullarning takomillashtirilgan tasnifini qo‘llash bo‘lajak mutaxassislarining kurash texnikasini samarali o‘zlashtirishiga ijobiy ta‘sir etganligi tajriba yakunlari bo‘yicha tasdiqlandi.

Xususan, “Yonbosh-belbog‘” usuliga doir bilim va ko‘nikmalar tajribagacha 68 ballni tashkil etgan. Tajribalardan so‘ng esa mazkur ko‘rsatkich o‘rtacha 76 ball bilan baholangan. Olingan natijalar tahlili tajribagacha va tajribadan so‘nggi ko‘rsatkichlar o‘rtasida ishonchli ijobiy o‘sish yuzaga kelganligini tasdiqladi (t-2,02, P≤0,05).

“Ichki chil” usuli bo‘yicha esa tajriba boshida o‘rtacha natija 63 ballga teng bo‘lgan bo‘lsa, tajribadan so‘nggi tekshirishlar asosida o‘rtacha 79 ballga teng ekanligi aniqlandi. Olingan natijalar o‘rtasida ishonchli statistik ishonchlilik darajalari kuzatildi (t-2,18, P≤0,05).

“Oldindan supurma” usuli bo‘yicha dastlabki natijalar o‘rtacha 60 ballga teng bo‘lgan. Tajribadan so‘ng esa o‘rtacha ko‘rsatkich 81 ballga teng bo‘lgan. Tajriba

boshidagi tajriba soʻngidagi natijalar oʻrtasida ijobiy statistik farq kuzatildi ($t=2,26$, $P \leq 0,05$).

“Qarshi qoʻshsha” usuli boʻyicha tajribagacha olingan natijalar oʻrtacha 59 ballni tashkil etgan. Tajribadan soʻng esa oʻrtacha koʻrsatkich 83 ga teng boʻlgan. Tajriba boshidagi va tajriba soʻngidagi natijalar oʻrtasida ijobiy statistik farq kuzatilgan ($t=2,08$, $P \leq 0,05$).

Kurash usullari tasnifiga doir tekshirishlar boʻlajak kurash mutaxassislarining mazkur yoʻnalishdagi koʻrsatkichlari yaxshilanganligini tasdiqladi. Xususan, kurash texnikasini oʻzlashtirish, texnik usullarni samarali bajarish holati yaxshilanishi ushbu jarayonda tasdiqlandi.

7-jadval

Tajribagacha va tajribadan soʻnggi kurash usullari tasnifiga doir bilim va koʻnikmalarni baholash natijalari (n=94)

Tajriba jarayoni	Natijalar			Oʻrtacha oʻzlashtirish	t	P
	Aʼlo	Yaxshi	Qoniqarli			
“Yonbosh-belbogʻ” usuli						
Tajriba boshida	19	31	44	68±4,2	2,02	≤0,05
Tajriba soʻngida	23	41	30	76±3,4		
“Ichki chil” usuli						
Tajriba boshida	11	36	47	63±1,7	2,18	≤0,05
Tajriba soʻngida	25	45	24	79±3,7		
“Oldindan supurma” usuli						
Tajriba boshida	14	32	48	60±2,4	2,26	≤0,05
Tajriba soʻngida	22	42	30	81±2,9		
“Qarshi qoʻshsha” usuli						
Tajriba boshida	13	32	49	59±3,1	2,08	≤0,05
Tajriba soʻngida	27	41	26	83±3,6		

Boʻlajak kurash mutaxassislariga kurash texnikasiga doir terminlar katalogi tizimli ravishda oʻqitildi. Bir paytning oʻzida ham nazariy ham amaliy mashgʻulotlar jarayonida ularning mazmuni va amaliy qoʻllanilishiga doir bilimlar ishtirokchilarga oʻrgatib borildi. Natijada boʻlajak kurash mutaxassislarining tajribadan soʻnggi koʻrsatkichlari ijobiy tomonga oʻsishiga erishildi. Bunda ushbu yondashuvning ijobiy taʼsiri mashgʻulotlarni samarali tashkil etilganligi bilan belgilandi.

**Tajribagacha va tajribadan so‘nggi kurash texnikasi asoslariga doir
bilimlarni baholash natijalari (n=94)**

Tajriba jarayoni	Natijalar			O‘rtacha o‘zlashtirish	t	P
	A‘lo	Yaxshi	Qoniqarli			
Kurash texnikasi asoslari						
Tajriba boshida	13	39	42	58±7,1	2,16	≤0,05
Tajriba so‘ngida	24	43	27	79±3,1		
“Ushlash” holati turlari						
Tajriba boshida	11	38	45	62±4,5	2,05	≤0,05
Tajriba so‘ngida	15	49	30	77±3,3		
“Yiqilish” turlari						
Tajriba boshida	15	30	49	58±2,7	2,11	≤0,05
Tajriba so‘ngida	28	45	21	82±2,1		
“Takrorlash” va “Bellashuv”						
Tajriba boshida	14	33	47	59±3,5	2,17	≤0,05
Tajriba so‘ngida	22	48	24	79±2,8		

“Kurash texnikasi asoslarini tavsiflash” yuzasidan berilgan topshiriq bo‘yicha dastlabki olingan natijalar o‘rtacha 58 ballni tashkil etgan. Mos ravishda tajribadan so‘nggi o‘rtacha ko‘rsatkich 79 ballga yetgan. Statistik ishonchlilik darajasi $t=2,16$, $P \leq 0,05$ ga teng bo‘ldi.

“Ushlash” holati turlarini tavsiflash bo‘yicha tajriba avvalida ishtirokchilarning o‘rtacha natijalari 62 ballni tashkil etgan. Tajribalar yakunida esa o‘rtacha ball 77 ga tengligi aniqlandi. Mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha ham ijobiy statistik o‘shish qayd etildi ($t=2,05$, $P \leq 0,05$).

“Yiqilish” turlarini tavsiflash” yuzasidan dastlabki natijalar o‘rtacha 58 ballni tashkil etgan bo‘lsa, tajribadan so‘ng bu ko‘rsatkich o‘rtacha 82 ballga yetgan hamda natijalar o‘rtasida ijobiy o‘shish aniqlandi ($t=2,11$, $P \leq 0,05$).

“Takrorlash” va “bellashuv”ni tavsiflash” bo‘yicha tajribagacha o‘rtacha natija 59 ballni tashkil etgan. Olib borilgan tekshirishlar tajribadan so‘ng o‘rganuvchilarda o‘rtacha ko‘rsatkich 79 ballga yetganligini ko‘rsatdi hamda ijobiy statistik o‘shish kuzatildi ($t=2,17$, $P \leq 0,05$).

Kurash texnikasi asoslariga doir ishlab chiqilgan terminlar katalogi bo'lajak kurash mutaxassislarining mazkur yo'nalish bo'yicha ijobiy ko'rsatkich qayd etganligini tasdiqladi.

Xalqaro tajribalarga asosan takomillashtirilgan kurash mutaxassislari tayyorlash dasturi malaka oshirish tizimidagi mutaxassislarga muayyan o'quv moduli mazmuniga singdirildi. Bunda murabbiylar uchun mo'ljallangan "Kurash nazariyasi va uslubiyati" o'quv dasturi mazmuni biz tomonimizdan taklif etilgan mavzular bilan boyitildi. Ishlab chiqilgan tegishli tavsiyalar o'quv dasturi mazmuniga kiritildi. Bunda kurashni o'qitishda eng muhim deb hisoblangan va maksimal darajada ixtisoslikka yo'naltirilgan mavzular va ularga muvofiq ma'lumotlar mutaxassislarga o'qitildi.

9-jadval

Kurash mutaxassislarining malakasini oshirishda foydalanilgan odatdagi dastur va unga kiritilgan takliflar

Odatdagi o'quv dasturi (Kurash nazariyasi va uslubiyati)	Joriy etilgan takliflar
Kurash nazariyasi va uslubiyatining xususiyatlari, maxsus atamalari	Kurash falsafasi. Kurashning sport turi sifatida rivojlanishi va xalqaro sport tasnifiga integratsiyasi
Kurashchilar jismoniy sifatlarini rivojlantirish vosita va uslublari	Kurash va boshqa yakkakurash sport turlarining qiyosiy tahlili
Texnik-taktik tayyorgarlikni takomillashtirish	Kurash texnikasi asoslari, terminologiyasi va usullar tasnifi
Kurashchilarning jismoniy, texnik-taktik tayyorgarligini rivojlanganlik darajasini nazorat qilish texnologiyasi	Kurashni ommalashtirish va rivojlantirish strategiyasi
O'quv-mashg'ulotlarida yuklama va uni sportchilar organizmiga ta'siri	Turli yosh va jinsga mansub kurashchilar bilan mashg'ulotlarni tashkil etish tizimi
Kurashchilarning musobaqa faoliyatini nazorat qilish va boshqarish	Kurash mashg'ulotlarida murabbiylarining roli

Kurash mutaxassislarining mustaqil bilim olish imkoniyatini kengaytirishga qaratilgan "Learn Kurash" o'quv platformasi samaradorligi quyidagi 10-jadvalda tasvirlangan.

"Kurash texnikasi asoslariga doir bilimlarni o'zlashtirish" bo'yicha ishtirokchilarning o'rtacha ko'rsatkichi 59 ballni, tajribadan so'nggi natijalar esa o'rtacha 74 ballni tashkil etgan. Natijalar o'rtasida ishonchli statistik farq qayd etilgan ($t=2,10, p \leq 0,05$).

Tajribagacha va tajribadan so‘ng o‘quv platformasi samaradorligini baholash natijalari (n=60)

Tajriba jarayoni	Natijalar			O‘rtacha o‘zlashtirish	t	P
	A‘lo	Yaxshi	Qoniqarli			
Kurash texnikasi asoslariga doir bilimlarni o‘zlashtirish						
Tajriba boshida	8	18	34	59±5,1	2,10	≤0,05
Tajriba so‘ngida	14	29	17	74±2,4		
Kurash usullari guruhiga doir bilimlarni o‘zlashtirish						
Tajriba boshida	11	31	18	72±3,5	2,21	≤0,05
Tajriba so‘ngida	22	22	18	86±2,8		
Kurash usullari tasnifiga doir bilimlarni o‘zlashtirish						
Tajriba boshida	10	18	32	68±4,3	2,18	≤0,05
Tajriba so‘ngida	13	33	14	81±2,7		

“Kurash usullari guruhiga doir bilimlarni o‘zlashtirish” ko‘rsatkichlari tajriba avvalida o‘rtacha 72 ballga teng bo‘lgan. Tajribadan so‘ng mazkur ko‘rsatkich o‘rtacha 86 ballni tashkil etgan. Statistika ishonchlilik darajasi $t=2,21$, $P \leq 0,05$ ga teng bo‘ldi.

“Kurash usullari tasnifiga doir bilimlarni o‘zlashtirish” natijalari tajribagacha o‘rtacha 68 ballni tashkil etgan. Tajribadan so‘ng esa ushbu natijalar o‘rtacha 81 ballga ko‘tarilgan. Natijalar o‘rtasida ijobiy statistik farq qayd etilgan ($t=2,18$, $P \leq 0,05$).

Ishlab chiqilgan “Learn Kurash” o‘quv platformasining samaradorligi tajribalar natijasida isbotlandi. Ushbu ishlab chiqilgan o‘quv platformasi kurash mutaxassislarining mustaqil bilim olish imkoniyatini yanada kengayishiga olib keldi.

Tajriba davomida qo‘llanilgan uslubiyat va ishlab chiqilgan yondashuvlar kurash mutaxassislarini tayyorlash jarayoniga ijobiy ta‘sir etganligi ilmiy asoslandi. Olib borilgan tajribalar va tadqiqot ishlari kurash mutaxassislarining ko‘nikma va malakalari ijobiy tomonga o‘zgarishida taklif etilayotgan yondashuvning samaradorligini tasdiqladi.

XULOSALAR

Dissertatsiya tadqiqoti doirasida olib borilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatishlar olib borish, so‘rovnomalar o‘tkazish va sinov-tajribalar o‘tkazish natijalariga asosan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Kurash sportini ommaviylashtirish, uning xalqaro nufuzini yanada oshirishda mutaxassislarning roli va ularga qo'yiladigan talablar yuqori darajada. Shu sababdan kurash mutaxassislari mazkur sport turini rivojlantirish, uning ilmiy-uslubiy asoslarini tadqiq etish hamda kelgusida kurash sportini Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritishda asosiy o'rinni egallashi tadqiqot jarayonida tasdiqlandi.

2. Kurashga doir adabiyotlarni o'rganish, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari tayyorlash yuzasidan xorijiy tajribalarning tahlili shuni tasdiqladiki, kurash sporti bo'yicha mutaxassislari tayyorlashda xalqaro tajribalarga tayanishning zarurati va dolzarbligi yuqori darajada. Olimpiya va Osiyo o'yinlari dasturiga kiritilgan sport turlari tajribasidan kurash mutaxassislari tayyorlash tizimida foydalanish mazkur yo'nalishda muhim hisoblanadi.

3. Xorijiy tajribalarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, mutaxassislari tayyorlashda ta'lim dasturlari va o'qitish jarayoni eng maqbul darajada muayyan ixtisoslikka yo'naltirilgan, ushbu ixtisoslik bo'yicha zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qaratilgan.

4. Olimpiya va Osiyo o'yinlari dasturiga kiritilgan sport turlarini rivojlantirish tajribasida mazkur sport turlarining ta'lim tizimiga chuqur integratsiya qilinganligi asosiy omil xisoblanishi aniqlandi. Shu sababdan kurash sportini ta'lim tizimiga keng joriy etish, xususan, oliy ta'lim tizimiga kiritish, chuqurlashtirilgan va ilg'or o'quv dasturlari ishlab chiqish zarur.

5. Kurash bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar ko'lamini oshirish, mahalliy va xorijiy grantlar asosida kurashni tadqiq etish, uning ilmiy asoslarini chuqur o'rganish kurashni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga kurash mutaxassislari tayyorlashga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalari va Xalqaro Kurash Instituti hamkorligini kuchaytirish, birgalikdagi yagona kadrlar tayyorlash dasturlari va mutaxassislarni o'qitish rejalarini ishlab chiqish zarur.

6. Kurash usullarining muayyan guruhga mansubligi bo'yicha tavsiflash va bo'lajak mutaxassislarning darsdan tashqari o'quv-mashg'ulotlari jarayoniga tatbiq etish ularning ixtisoslikka doir bilim va ko'nikmalari yaxshilanishiga imkon berdi. Tajriba natijalari bo'yicha bo'lajak mutaxassislarning kurash usullarining muayyan guruhlar bo'yicha texnik tavsiflash ko'rsatkichlari 82,7 ballga ko'tarildi.

7. Kurash usullarining takomillashtirilgan tasnifi bo'lajak kurash mutaxassislarning texnikani samarali o'zlashtirish imkoniyatini oshirdi. Darsdan tashqari o'quv-mashg'ulotlarida kurash usullari tasnifing takomillashtirilgan variantini joriy etish texnikani samarali bajarishga imkon berdi hamda bo'lajak mutaxassislarning o'rtacha o'rtacha o'zlashtirish darajasi 79,7ga ko'tarildi.

8. Kurash texnikasi mazmunini ifodalash, mashg'ulot jarayonini samarali tashkillashtirishga doir terminlar katalogi bo'lajak mutaxassislari bilan darsdan tashqari o'quv-mashg'ulotlari jarayoniga joriy etildi. Olib borilgan tajribalar natijasida bo'lajak kurash mutaxassislari bilan mashg'ulotlarni tashkil etish samaradorligi hamda ularning kurash texnikasi asoslariga doir bilim darajasi 79,2 ballga oshdi.

9. Xorijiy tajribalar hamda mutaxassislik xususiyatlarini hisobga olib kurash mutaxassislari o'qitishga mo'ljallangan o'quv dasturi mazmuniga tegishli takliflar kiritildi. Tegishli takliflar va kiritilgan mavzular kurash ixtisosligini

hisobga olib ishlab chiqildi hamda dastur mazmuniga joriy etildi. Taklif etilgan dastur kurash murabbiylarining kasbiy tayyorgarlik darajasi yaxshilanishiga ijobiy ta'sir etdi.

10. "LEARN KURASH" o'quv platformasidam maqsadga muvofiq foydalanish mutaxassislarning kurashga doir bilimlarni oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida mazkur o'quv platformasidan foydalanish mutaxassislarning mustaqil bilim olish imkoniyatini kengaytirishga ijobiy ta'sir etdi.

AMALIY TAVSIYALAR

1. Kurash mutaxassislari tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida, mashg'ulotlar va musobaqalar tashkil etishda kurashning asl mohiyatini, uning tarixiy, falsafiy, ijtimoiy-pedagogik va insonparvarlikka yo'naltirilgan g'oyalarni chuqur singdirish kerak. Natijada mutaxassislarning kurashga bo'lgan munosabatlari o'zgarishiga erishiladi.

2. Oliy ma'lumotli kurash mutaxassislari tayyorlashga ixtisoslashgan ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarga kurashni o'qitishga mo'ljallangan o'quv dasturlari mazmuniga kurashga xos bo'lgan maxsus terminlar va usullar nomlarini kiritish, kadrlar tayyorlash jarayonida ularni to'liq va to'g'ri qo'llashga erishish kerak. Bu kelgusida kurashni yanada rivojlantirishning eng muhim va birlamchi shartlaridan biri hisoblanadi.

3. Kurash mutaxassislarning malaka oshirish jarayonida qo'llanilayotgan o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish, ushbu dasturlar mazmuniga kurash terminlari va usullar nomlarini kiritish orqali murabbiylarning malakasini oshirish zarur. Olingan bilimlar kelgusida mashg'ulotlarda qo'llaniladi hamda bo'lajak mutaxassislarni o'qitish jarayonlari samarali amalga oshiriladi.

4. Kurashchilar tayyorlash jarayoni, xususan, mashg'ulotlarni tashkil etish va xalqaro o'quv-yig'inlarida kurash terminlari va ulotqirish usullarining rasmiy tasdiqlangan nomlarini XKA tasnifi bo'yicha qo'llash kerak. Natijada kurashga doir bilimlarning xorijiy mutaxassislar tomonidan samarali o'zlashtirilishiga erishiladi.

5. Respublikamizda kurashga doir ilmiy-tadqiqotlar samaradorligini oshirish, bu borada xorijiy oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot institutlari olimlarini hamkorlikka jalb qilish, kurash mutaxassislari tayyorlashga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalarida xorijiy fuqarolar uchun bakalavriyat, magistratura va doktoranturada o'qishlari uchun alohida tanlovlar e'lon qilish, kurash ixtisosligi bo'yicha o'qish va ilmiy-tadqiqotlar olib borishga keng jalb etish tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ
ШАРОФА РАШИДОВА**

АХМЕДОВ ФАРРУХ ШАВКАТОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ
СПЕЦИАЛИСТОВ ПО КУРАШУ НА ОСНОВЕ ЗАРУБЕЖНОГО
ОПЫТА**

**13.00.01 – Теория педагогики. История педагогических учений
13.00.04 – Теория и методика физического воспитания, спортивной тренировки,
оздоровительной и адаптивной физической культуры**

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора наук (DSc) по педагогическим наукам

Тема диссертации доктора философии (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией под номером B2023.3.DSc/Ped616.

Докторская диссертация выполнена в Самаркандском Государственном Университет имени Шарофа Рашидова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте по адресу www.uzdjtsu.uz и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу www.ziyonet.uz.

Научный руководители:

Шопулатов Абдималик Нуриллаевич
доктор педагогических наук (DSc), доцент

Дадабаев Одилджон Джалолиддинович
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты:

Рахимов Владимир Шавкатович
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Иштаев Джавлон Мавлонбоевич
доктор педагогических наук (DSc), доцент

Джуманиязова Мухайё Тоджиевна
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Ведущая организация:

Ургенчский Государственный Университет

Защита диссертации состоится “___” _____ 2025 г. в _____ часов на заседании Научного совета DSc.3/30.12.2019.Ped.28.01. При Узбекском государственном университете физической культуры и спорта по адресу: 111709, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Спортчилар, дом 19. Тел.: (0-370)-717-17 79,717-27-27, факс.: (0-370) 717-17-76; Веб-сайт: www.uzdjtsu.uz, e-mail: info@uzdjtsu.uz. (Узбекский государственный университет физической культуры и спорта, корпус «Е» 3-й этаж, аудитория 309).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно ресурсном центре Узбекского государственного университета физической культуры и спорта (зарегистрирована за № _____) по адресу: 111709, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Metallурглр, дом 15. Тел.: (0-370)-717-17 79,717-27-27, факс. :(0-370) 717-17-76

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 года
(реестр протокола рассылки №___ от «___» _____ 2025 года)

Р.М.Маткаримов
Председатель научного совета
по присвоению ученых степеней,
д.п.н., (DSc) профессор

Ш.Газиев
Ученый секретарь научного совета
по присвоению ученых степеней,
д.п.н., (DSc) доцент

М.С.Олимов
Председателя научного семинара при
научном совете по присвоению ученых степеней,
д.п.н., (DSc) профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире все больше растет число профессионалов, желающих заниматься и обучаться курашом. Включение кураше в последние годы в программу Азиатских и Африканских игр и других престижных международных спортивных соревнований показывает, что кураш как вид спорта расширяется географически. Данная ситуация, в свою очередь, объясняет актуальность осуществления подготовки специалистов по кураше на основе международного опыта, внедрения системы подготовки специалистов по кураше в соответствии с требованиями времени.

В мировом опыте все больше увеличивается объем исследований и разработок, направленных на подготовку специалистов по физическому воспитанию и спорту. Международным научным сообществом признано, что подготовка специалистов является важнейшим фактором разработки инновационных методов подготовки спортсменов и достижения высоких результатов на международных спортивных соревнованиях. В современных условиях развития спорта одним из важнейших вопросов в современных условиях становится подготовка специалистов по физическому воспитанию и спорту, совершенствование их профессиональной подготовки, создание системы подготовки специалистов-кадров по международным стандартам. В частности, необходимо создать систему подготовки специалистов по кураше на научной основе с учетом международного опыта и усовершенствовать систему профессиональных кадров.

Кураш является одним из приоритетных видов спорта в Республике Узбекистан, а спортивные результаты, достигнутые на международном уровне, отражают состояние развития этого вида спорта. Сегодня задача «подготовки профессиональных тренеров по курашу, судей, разработки учебно-методических пособий, укрепления научно-методической базы кураша» является одной из актуальных задач. Тенденции в подготовке профессиональных кадров по курашу, повышении квалификации судей и тренеров в нашей стране являются результатом системных реформ в этой сфере. Анализ теории и практики кураша показывает необходимость организации подготовки специалистов на основе передового зарубежного опыта, использования эффективных и действенных методов в подготовке тренеров по курашу и профессиональных кадров, расширения объема научных знаний о кураше. По этой причине возникает необходимость развития соревновательных форм подготовки высококвалифицированных специалистов по курашу, в частности, совершенствования системы подготовки профессиональных кадров по курашу на основе международного опыта.

Настоящая диссертационная работа в определенной степени служит реализации задач, указанных в Постановлении Президента Республики Узбекистан «О мерах по совершенствованию системы подготовки кадров и повышению научного потенциала в области физического воспитания и

спорта» от 4 ноября 2020 года, «О мерах по развитию национального вида спорта кураш и дальнейшему повышению его международного авторитета» за №ПП-4881 от 4 ноября 2020 года¹, а также в других нормативно-правовых документах, направленных на определение приоритетных направлений развития кураша.

Связь исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий в Республике. Исследования выполнены в рамках приоритетного направления по развитию науки и технологий: I. «Информатизированное общество и формирование системы инновационных идей социального, правового, экономического, культурного, духовнопросветительского развития демократического государства и пути их реализации».

Обзор зарубежных исследований по теме диссертации. Научно-исследовательская работа по курашу проводилась в ведущих университетах и научно-исследовательских институтах в области физического воспитания и спорта зарубежных стран. В частности, продвинутые эксперименты проводились в таких университетах, как Федеральный университет Рио-де-Жанейро [Бразилия], Римский университет Тор Вергата [Италия], Университет Корунья [Испания], Корейский спортивный и олимпийский комитет [Южная Корея], Университет Ренниса [Франция].

В мире разработаны механизмы технико-тактической оценки моделирования соревновательной деятельности в некоторых видах спортивной борьбы [Федеральный университет Рио-де-Жанейро, Бразилия], биомеханическое описание различных броски, их специфических особенностей и применения различные приёмы в организме спортсмена в условиях соревновательной деятельности, научно доказаны энергозатраты [Римский университет Тор Вергата, Италия], психофизиологические и гормональные показатели организма спортсмена во время соревнований и тренировок, взаимосвязь между организмом спортсмена и научно изучены высокие результаты [Университет Коруньи, Испания]. На международных спортивных соревнованиях, особенно на Азиатских играх, определялись показатели травматизма курашистов и разрабатывались практические рекомендации [Корейский спортивно-олимпийский комитет, Южная Корея], были предсказаны историческое и культурное аспекты, будущие тенденции развития кураша [Университет Ренна, Франция]².

Кроме того, в международных научно-исследовательских институтах, университетах и ведущих зарубежных научных центрах мира проводятся научно-исследовательские работы по различным направлениям по проблемам физического воспитания и спорта. В частности, в системе спортивной подготовки проводятся научные эксперименты по взаимно гармоничной организации различных частей тренировки, на основе

¹ Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по совершенствованию системы подготовки кадров и повышению научного потенциала в сфере физической культуры и спорта. 3 ноября, 2020 года. №ПП-4877.

